

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi



2018 yilning yanvar – dekabr oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatida jami 2 366,9 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,9 %ni tashkil etdi.	Surxondaryo	etdi.	Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 44,8 %i yoki 1061,4 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,0 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 33,5 % yoki 793,0 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,2 %ni tashkil etdi.
Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 512,5 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 21,7 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,5 %ni tashkil			

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -

2 366,9 mlrd.сум

Yirik pudrat

tashkilotlari ulushi -

21,7 %

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi -

44,8 %

Norasmiy sektor ulushi -

33,5 %

Yirik pudrat
tashkilotlari

- hajmi - **512,5 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **106,5 %**


Kichik korxonalar
va mikrofirmalar

- hajmi - **1061,4 mlrd.so'm**
- o'sish surati **110,0 %**

Norasmiy sektor

- hajmi - **793,0 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **100,2 %**

Yanvar - dekabr oylarida faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 69,0 %ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davridagi

ko`rsatkichga nisbatan 4,7 % punktga kamaydi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 25,6 %ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 6,0 % punktga ko`paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 5,4 % to`g`ri keldi hamda o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 1,3 % punktga kamaydi.

Yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 5,3 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi.

Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 46,2 % (2,6 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 48,6 %ni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-dekabrda faoliyat turlari bo`yicha tarkibi
(jamiga nisbatan %da)**




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo`yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 63,0 %ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 5,0 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 37,0 % (5,0 % punktga ko`payish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 4,0 % punktga kamaydi va 34,6 %ni tashkil etdi. Qolgan 65,4 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalarhissasiga to`g`ri kelib o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 4,0 % punktga ko`paydi.


Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar boyicha tarkibida Termiz shahri yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlarining

64,6 %i kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan.

Hududlarda qurilish ishlarining o`shish suratlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Hududlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so`m)



Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (76) 223-07-15